

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY QARASHLARIDA MILLIY TA‘LIM MASALASI

Lapasov Muxammadsodiq Akramjon o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo‘nalishi talabasi

Annatasiya: *Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja ko‘plab sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat va maorif, o‘zbek dramaturgi, ilmiy-adabiy meros, intizom va ikmolig‘a, jadidchilik, yangi usul, ibtidoiy tarbiya.*

Ayni damda o‘zini anglagan, yuksak farovon turmush tarzini yaratishni oldiga maqsad qilgan jamiyat uchun ta‘lim-tarbiya muhim zaruriy vosita sanaladi. Yangi O‘zbekiston barpo etilishida ta‘lim, tarbiya umuman ma‘rifatni keng jamoatchilik orasida chuqur targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Matlabim-arzi hunar va izhori fazl emas, ahli Vatanga qo‘limdan kelguncha bir xizmatdur” deya millatga jon fido ekanligini namoyon etganlar.

Darvoqe, Turkiston xalqining milliy qahramoni, jamoat, madaniyat va maorif arbobi, birinchi o‘zbek dramaturgi, milliy teatr muassisi, ulug‘ matbuotchisi, adib, tarjimon Mahmudxo‘ja Behbudiy nomi faqatgina Turkiston ziyolilariga emas, balki mamlakat sarhadlaridan oshib Osiyo va Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida ham ma‘lum va mashhur. Shu bois uning hayoti va faoliyati deyarli bir asrdan buyon tarixchi, adabiyotshunos, huquqshunos, san‘atshunos olimlar, qolaversa, keng jamoatchilik nazar-e‘tiborida.

Mustaqilligimiz sharofati ila Behbudiyning pok nomi, milliy madaniyatda tutgan o‘rni va mavqei tiklanishi u kabi madaniyat va maorif namoyondalarining ijodlarini keng miqyosda o‘rganish hamda chop etish uchun yo‘l ochdi. Binobarin, millatimiz tarixining yangidan yozilishiga, tarixiy adolatning tiklanishiga toza tuproq soldi. Bularning barchasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy-adabiy merosi boy, madaniyatimiz tarixida katta o‘ringa ega donishmand arbob ekanligidan dalolatdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1893-yildan Rusiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy gazeta-jurnallar, kitoblar mutolaasiga qattiq kirishadi. Zamona voqealari bilan tanishib, siyosat va ma‘rifat sohasida ro‘y berayotgan yangiliklarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Xalqning ma‘rifatsizligini, ziyolilarning avomlashganini ko‘rib el-yurt, avvalo, oilasida ma‘rifatni kuchaytirishga harakat qiladi: farzandlari ta‘lim-tarbiyasiga jiddiy e‘tibor bergan. Ularning xat-savodli, zamon talabidagi mutaxassis bo‘lib yetishishiga sharoit yaratgan. Shu bois u bolalariga xususiy o‘qituvchilar yollab rus, fransuz va boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qilgan. O‘zi muharrirlik qilgan nashrlar va asarlari yordamida xalqning ijtimoiy, siyosiy ongini oshirishga, jahon madaniyati, mutaraqiy

mamlakatlar afkor ommasi erishgan yutuqlarga e'tibor qaratishga bor kuch-g'ayrat va mablag'ini, hatto jonini tikgan. Millat va Vatan taraqqiyoti, ravnaqi uchun yashash, bu yo'lda uchraydigan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, diniy, ma'muriy ta'qib-taziyqqa chidash barchaning qo'lidan kelavermaydi. Behbudiy ham orqavorotdan haqorat va tahqir so'zlarni eshitgani, dilni xira qilguvchi johilona imzosiz yozilgan ma'rifat bilan qurollantirib, Vatan taraqqiyoti va ravnaqini ko'rishdan qaytara olmadi. Sababi, u xalqi tushib qolgan milliy tanazzulni yurakdan his qilar va garchi nomiga bo'lsa-da davlatchilik maqomini ushlab turgan Buxoro amirligi, Xiva xonligining tamoman yo'qolib, Rusiya davlati tarkibiga singib ketishidan xavfsirar edi. Mahmudxo'ja Behbudiy maorif tizimining islohotini umummamlakat, umummillat muammosi deb bildi va bu masalada Ismoil Gasprinskiyning Turkistondagi hammaslagiga aylandi. Aynan shu nuqtai nazardan do'sti Abdulqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktab ochish xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatladi. Maktab bolalari shahardan tashqariga qatnab qiynalishganini sezgan Behbudiy Samarqand harbiy voliysidan maxsus ruxsatnoma olib Shakuriy maktabini Xoniy xalifa La'lbek mahallasidagi o'z hovlisiga ko'chiradi. 1906-1907 yillar mobaynida maktab ancha jonlanadi. Behbudiy maktab uchun darsliklar yozib beradi, chet eldan olib kelgan adabietlar va xaritalar bilan ta'minlaydi.

Darhaqiqat, barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki: makotib taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning durdonasidur. Har millat, eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirib madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe' va maorif silohi ila qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmay, "muborazai hayot" maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlari ostida ezilur. Diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiri bo'lub, bora-bora millat va diyonatini ham qo'ldan berur. Ana ushbu yo'llar ila oxiri mahv va nobud bo'lub ketar. Binoan alayh yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarining ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizom va ikmolig'a ko'b ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suvratda etishdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har har ishda diyonat va millatni muqaddam tutarlar. Valzumi kelganda bu yo'lda mol va jonlarini fido qilmoqg'a hozir turarlar. Mana hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishuvlar diyonat va millat hissiyoti natijasidur, o'rgatmog'imiz kerak, chunki bizning ilmsiz va tilsizligimiz ulardandir. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, farzand ta'limi hamda tarbiyasida maktab va oila integratsiyasiga erishilmasa natija samarasiz bo'ladi.

Xulosa qilib aytish kerakki, Mahmudxo'ja o'z millatining taqdiri uchun qayg'urdi, Vatan ravnaqi uchun yo'l izladi. U taraqqiyotni ilmu ma'rifatda deb bildi, kishilarni ilmga, ziyoga chorladi, jaholatu bid'atdan qochishga undadi. "Dunyoda yashamoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, boy bo'lmoq u yoqda tursin, ro'zg'or tebratish uchun ham ilm kerak",-dedi u yurak-yuragidan kuyinib va yoshlarga ilm berish uchun maktablar ochdi, darsliklar yozdi, odamlarga dunyoviy ilm berishning eng ilg'or yo'li bo'lgan yangi – jadidchilik g'oyalarini yoqlab chiqdi. Temuriylar davri

o'rnida tashkil topgan mahalliy xonliklarning o'zaro nizolari aholi o'rtasida nafaqat moddiy qashshoqlik, shu bilan birga ilm-fan va ta'lim-tarbiya tizimini ham qoloqlashishiga sabab bo'ldi. Mazkur holat keyinchalik ayanchli oqibatlarini namoyon etganiga tarix shohid. Bunday vaziyatda faqat va faqat ilm-ma'rifatni keng targ'ib etish eng to'g'ri yo'l ekanligini Behbudiy o'z davrida anglab etganiga guvoh bo'lamiz. U jaholat, ilmsizlik qanday oqibatlar keltirishi mumkinligini o'z dramatik asarlari orqali ham ochib bergan. "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnallarini o'z hisobidan chop ettirib, Turkiston xalqi orasida ilmu-ma'rifatni keng targ'ib etgan mutafakkir sifatida tarixda qoldi.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. "Nashriyoti Behbudiya" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fit-ratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi. O'sha davr vaqtli matbuotida "Behbudiy kutubxonasi" haqidagi xabarlar chiqa boshlangan edi.

M.Behbudiy milliy til masalasiga katta e'tibor qaratdi. Birgina uning "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq, "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqqan edi.

1926-37 yillarda 11 yil davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining adabiyashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq u mansub bo'lgan jadidchilikni aksil-inqilobiy, aksilsho'roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 145-yilligi keng nishonlanadi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o'zbek adabiyoti va san'atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma'rifati, ozodligi, hurligi yo'lida mardonavor kurashgan bu ulug' allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o'rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo'lib qoldi.

Zero, Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi stipendiyani tashkil etilishi ham yurtimiz yoshlari qalbida yuksak bilim va ma'rifatlik, vatanparvarlik tuyg'ulari jo'sh urib turadi, faxr va iftixor tuyadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudjo'xa Behbudiy. Tanlangan asarlar. T: "Mana'viyat" 1997, 132-bet.
2. Muqumiy. Asarlar. T: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1974, 346-bet.